




- Izoh:** 1. 1 kredit 30 akademik soatni tashkil qiladi.
2. Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari tanlov fanlar blokining soatlari hisobiga (tanlov fanlarini o'zlashtirish sharti bilan), harbiy yig'in esa ta'til vaqti hisobiga o'tkaziladi. Harbiy tayyorgarlik mashg'ulotlari o'tkazilmaydigan hollarda ushbu blokdan mehnat bozori va kadrlar buyurtmachilarining talablariga moslanuvchanligi va harakatchanligi ta'minlovchi fanlar institut Kengashi qarori bilan belgilanadi.
3. Kurs loyiha, kurs ishlari uchun talabaga tegishli fanning mustaqil ta'lim soatlaridan 30 akademik soatni ajratgan holda 1 kredit beriladi.
4. Yakuniy davlat attestatsiyasi muddatlari tarkibiga bitiruv malakaviy ishini himoya qilish ham kiradi.
5. O'quv reja kiritiladigan ixtisoslikka oid fanlarning amaliy mashg'ulotlari institut hamma bazaviy tashkilot va korxonalarda o'tkaziladi.
6. Nazariya va amaliyot yaxlitligini ta'minlash uchun talabalarining malakaviy amaliyotlari bazaviy tashkilot va muassasalarda 2, 3-8 semestrlarda o'tkaziladi. Amaliyot 3-8 semestrlarda 4+2 shaklda, ya'ni haftaning 4 kunida nazariya va amaliyot ta'lim, 2 kunida malakaviy (pedagogik) amaliyot tartibida amalga oshiriladi. 3-8 semestrlarda mutaxassislik fanlarining sillabuslarida mustaqil ta'lim mazmuni joriy semestrda amaliyot dasturi mazmuniga mos kelishi va bir-birini to'ldirishi, talabalarining amaliyoti mustaqil ta'lim topshirig'ini bajarish uchun asos sifatida xizmat qilishi lozim.
- *1-kurs: 2-semestrda malakaviy (o'quv-tanishuv) amaliyoti uchun jami 4 kredit ajratiladi.
- *2-kurs: 3-4-semestrlarda 4+2 shaklidagi amaliyot uchun har semestrda 5 kreditdan jami yillik 10 kredit va 4-semestrda malakaviy (o'quv-tanishuv) amaliyoti uchun jami 1 kredit ajratiladi.
- *3-kurs: 5-6-semestrlarda 4+2 shaklidagi amaliyot uchun har semestrda 5 kreditdan jami yillik 10 kredit va 6-semestrda malakaviy (pedagogik) amaliyoti uchun jami 1 kredit ajratiladi.
- *4-kurs: 7-8-semestrlarda 4+2 shaklidagi amaliyot uchun har semestrda 5 kreditdan jami yillik 10 kredit ajratiladi.
7. Jismoniy tarbiya va sport fani fakultativ kurs sifatida talabning ixtiyoriy tanlovi asosida sport seksiyalarida tashkil etiladi.
8. O'quv reja institut o'quv-uslubiy Kengashining 2024 yil "26" iyun dagi 10-r-son yig'ilishida maqullangan va institut Kengashining 2024 yil "5" iyul dagi 10-r-sonli yig'ilishida tasdiqlangan.

O'quv jarayonining tarkibiy qismlari	Haftalar soni	Semestr	Davlat attestatsiyasi
Nazariy va amaliy ta'lim	120	1-8	
*Amaliyot	6	2, 3-8	
Attestatsiyalar	22	1-8	
Yakuniy davlat attestatsiyasi	4	8	
Ta'tillar	36	1-8	
Fanlarni tanlash uchun ro'yxatdan o'tish	8	1,3,5,7	
GPA ko'rsatkichini hisoblash	8	1-8	
Jami	204		Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish yoki ixtisoslik fanlaridan Davlat attestatsiyasi

SamDChTI o'quv ishlari bo'yicha prorektori  **F. Ruzikulov**

O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i  **A. Jo'raqulov**

Sharq tillari fakulteti dekani  **U. Sattarov**